

Qurbanova Nigina

Buxoro davlat universiteti 2-kurs magstri

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoir va ijodkor Sadriddin Salim Buxoriyning falsafa va hikmat ilmi bilan yo'g'rilgan ijodining o'ziga xos xususiyatlari, tasavvufiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Ijodkorning sodda, xalqona uslubda yozilgan she'rlarida haq va haqiqat, insonning hayotidagi mazmun-mohiyat, o'zlikni anglash va tarbiyalash g'oyalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, avliyo, orif, oshiq, zohid, hikmat, shariat, tariqat, ilmi ladun, riyozat, farosat, e'tiqod, Buxoro, naqshbandiya, so'z, ko'ngil

Adabiyot - inson qalbi va ruhidagi nozik ohanglarni ilg'ashga, insonning ichki kechinmalarini bir vaqtning o'zida barcha uchun ma'lum bo'lgan hissiyotlarni so'z vositasida aks ettirishga intiladi. Inson yaralibdirkim, haq va haqiqat, go'zal insoniy xislatlar, kamolot kasb etish haqidagi g'oyalarni hayotiga targ'ib va tatbiq qilib keladi. Ushbu g'oyalalar esa adabiyot va tasavvufni bir nuqtada tutashtiradi va o'ziga xos olamni yaratadi. Bunda shoirlar kuchli bir ruh, ko'ngil amri bilan irfoniy g'oyalarni kuylaydi, his-hayajon serob, ajoyib she'rlar, mashhur asarlar yaratiladi. Har birining o'zining o'quvchisi va muxlisi bo'ladi.

Bugungi kunda nafaqat buxoroliklar balki butun adabiyot ahlining qalbidan joy olgan shoir, tarjimon, qomusiy olim bo'lmish Sadriddin Salim Buxoriy har bir she'rlarida onaga, Vatanga bo'lgan muhabbatni, insonning hayot falsafalarini, tabiatning eng nozik va betakror hodisalarini kuyga solish orqali o'ziga xos ohang va uslub bilan o'quvchi qalbiga kirib bordi. Tuprog'i oltin-u gavharlarga teng sharif shahar bo'lmish Buxoroning haqiqiy dilbadi sifatida Buxoroning muqaddasligini, shu zaminda yetishib chiqqan avliyolarning, muborak insonlarning sha'n-u shukuhini she'rga soldi. Ne'mat Aminov o'zining "Vatan tomon millat tomon og'gan shoir" maqolasida "...Go'yo uning tili "Ona", "Buxoro" so'zlari bilan chiqqandek.

U Buxoroning Buxoroligini azaliy va abadiy sharaflikda ko'rdi. Uning iymoni ham, e'tiqodi ham ana shu shariflik atrofida shakl va shamoyilga erishdi..."- deya yorqin xotirlaydi. Haqiqatan ham, Buxoroning shariflik darajasida ko'tarilishiga sababchi bo'lgan muqaddas qadamjolar, shu tuproqda tug'ilib o'sgan avliyolar va buyuk shaxslarning xotirlalarini abadiylashtirish maqsadida qator kitoblar va maqolalar yozgan. Doimiy ravishda izlanishda bo'lib, tarixiy – ma'rifiy mavzudagi hamda tasavvuf kishilari tarixiga doir o'ttizdan ortiq asarlar nashr qildirgan. "Uch avliyo", "Chor Bakr yoki Jo'ybor avliyolari", "Hazrat Abu Hafs Kabir", "Ikki yuz yetmish yeti pir", "Hazrat Bahouddin Naqshband", "Hazrat Kabul Ahror Valiy", "Oltin zanjir halqalari" kabi kitoblari shular jumlasidandir. Ijodkor izlanishlari davomida buyuk avliyolarning bir tomondan, din va shariat, ikkinchi tomongan, falsafa va hikmat ilmi bilan yog'rilgan ta'limotini o'zining ruhiyatiga hamda she'riyatiga singdirib bordi.

Buni ushbu she'nda ham ko'rish mumkin:

Illat izlaganga illatdir dunyo,
G'urbat izlaganga g'urbatdir dunyo,
Kim neni izlasa topar begumon
Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo.

Insonning umri nimani izlab, istab yashashiga ko'ra baholanadi. Shu uning hayotini qiymatini belgilaydi va bu dunyoda kim nimani istasa begumon erishadi. Bejizga, hadislarimizda "Albatta amallar niyatlarga bog'liqdir. Albatta har bir kishiga niyat qilgan narsasi bo'ladi" deyilmagan. Umri davomida nimanidir izlab, orzu va niyat qilib yashash insoniy fitratlardandir. Rumiy Hazratlari ham:

Guftand: yoft nest, base justem mo,
Gufto: onki yoft naboshat- onam orzust!

(“Dedilar: biz ham uni ko'p izladik, ammo u topilmadi. Dediki: o'sha topilmaganni izlayman mening orzum – o'sha)

Ushbu she'rda ham, kim bu dunyoda illat izlasa, illatni, g'urbat izlasa, g'urbatni hikmat izlasa begumon hikmatni topishi aytilgan. Bundan ko'rinish turibdiki, insonning mutlaq hikmatullohga, mutlaqadolat va poklikka erishish istaklari tasavvufda mujassam bo'ldi. Tasavvuf esa haqqa tashna zotlarning qalb e'tiqodi bo'lib talpinar ekanlar, haq va haqiqatni insonning o'zidan izlash, yer yuzida hikmat urug'ini va haqiqat nurini yoyish uchun kurashganlar. Sadriddin Salim Buxoriy ushbu she'rda ham tasavvuf ahllari bo'lmish orif, oshiq, zohidga to'g'ridan to'gri murojaati aks etgan:

Orifo jondin kechib jon istagil,
Zohido, dardingga darmon istagil.
Oshiqi zorni ko'ring diydor talab
Istaging shu ersa, Rahmon istagil.

Zohidlarning o'ziga xos xususiyatlari Qur'on mazmuni ustida mushohada qilish, kundalik hayotda bu ilohiy kitob va payg'ambar hadislari ko'rsatmalariga qat'iy rioya etish, ko'p nafl namozlari o'qish, bedorlik va ro'za tutish, har qanday dunyoviy narsalardan yuz o'girish, kundalik hayotda taqvoli bo'lish, xususan, ruxsat etilgan narsalar bilan man qilingan narsalarni qat'iy ajratish, o'zini taqdiri ilohiyga topshirish bo'lgan. Shariat va tariqat odoblariga bu xilda rioya etishni Hazrat Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Xo'ja Ahror, Najmiddin Kubro kabi avliyolar targ'ib etishgan.

Shoir ham dunyoning barcha yaxshiliklari-yu, noz- u ne'matlaridan parhez qilib dard chekayotgan zohidga murojaat qilib, dardiga darmon istashini aytadi. Zohid uchun darmon nima bo'lishi mumkin? Albatta, dunyo ishlaridan yuz o'girib riyoza chekkan zohid uchun yagona xohish Allohning jamoli va Uning muhabbatiga erishishdir. Dunyo yaralibdirkim, oshiqning istagi Yorning diydorini ko'rishdir. Mashhur so'fiy ayol Robiya Adaviya (714-80ly) Allohga murojaatlarida aytar ekan : “ – Ey, Yori aziz, agar jannatning ta'masida ibodat qilayotgan bo'lsam, jannatdan benasib qil, do'zaxdan qo'rqib ibodat qilayotgan bo'lsam, meni do'zax o'tida kuydir, men roziman, Agar jamolingni deb ibodat qilayotgan bo'lsam meni jamolingdan benasib etma” Bundan ko'rinish turibdiki, Robiya Adaviya ham barcha ibodatlarni Allohning jamolini ko'rish uchun qilgan ekan.

To'rtlikning so'ngida Sadriddin Salim Buxoriy ham inson diydor talabida bo'lsa, faqatgina Rahmonning diydorini ko'rish uchun mushtoq bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Uning she'rlarida butun olamga keng tarqalib , katta ijtimoiy hodisaga aylangan o'z – o'zini takomillashtirish, o'z- o'zini tarbiyalash, axloqiy yuksalish, ezbilik kabi g'oyalar keng o'rin egallaydi.Bunga esa quyidagi to'rtlikni misol keltirishimiz mumkin:

Farosat ahliga ibrat zamona,
Dili ko'rlar uchun ishrat zamona.
Dilini poklamoq bo'lganlar aytur
Ki zikri Haq uchun fursat zamona.

“Giyosul lug'at” kitobida keltirilishicha, Alloh taolo tomonidan ato qilingan ilm laduniy ilm hisoblanadi. Ushbu ilmga urinish, sa'y qilish, riyozat chekish orqali Alloh taolo o'zi xohlagan bandasiga in'om etadi. Shunga ko'ra laduniy ilm: vahiy- payg'ambarlarga, ilhom- avliyolarga, farosat orqali bilishni esa - so'fiylarga Allohnинг izni bilan beriladi. Sadriddin Salim Buxoriy ham she'rning birinchi misrasi orqali odamning zohiriga qarab botinini o'rganadigan, laduniy ilm sohiblari bo'lmish farosat ahllari uchun ibrat bo'la olishini, she'rning keying misrasida birinchi misradan farqli o'laroq, qalbi dunyoning hoy- u havasları, noz – u ne'matlariga uchib, Haq yo'lida basir qolgan insonlarga kayf – safo zamoni ekanligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, dilini poklamoq niyatida bo'lgan insonlar uchun Alloh taoloni zikr qilishning ayni fursatilagini eslatib o'tadi. Zikr xususida muborak kitob bo'lmish Qur'oni karimdagı Ra'd surasining 28- oyatida ham “ Allohnинг zikri ila qalblar orom olmasmi?” oyati karimasi keltirilgan. Haqiqatan, zikr insonni Haqning muhabbatiga yetkazuvchi eng to'g'ri yo'l hisoblanadi.

Sadriddin Salim Buxoriy “Dilda Yor” kitoblarida Alloh taolloni nomini yurakdan zikr etish ta'limi naqshbandiya tariqati asoschisi Hazrat Bahouddinga Abduxoliq G'ijduvoniy o'rgatganliklarini, u kishi esa Xizr alayhissalomdan o'rganganliklari bayon etilgan. Naqshbandiya tariqatidagi zokirning boshqa tariqatdagi zokirlardan farqi: sokin va mo'tadilligi, riyodan holi, baqir – chaqir, tarannum va tinglashlardan uzoqda,qalb tili birla Allohn zikr qilishidadir.

So'z qanotga aylandi,
Shaylan, yurak, parvozga.
G'irko'k otga aylandi,
Sig'magay u qog'ozga.
So'z qanotga aylandi,
Qalam ham darkor emas.
So'z bayotga aylandi,
Olam tingab bo'ldi mast.
So'z qanotga aylandi,
Ko'kni quchmoqda qo'shiq.
So'z sabotga aylandi.
Malaklar unga oshiq.
So'z qanotga aylandi,
Yurak ko'chdi osmonga.
So'z hayotga aylandi,
So'z aylandi insonga.

Bir qarashda sodda, samimiy, xalqchil usulda yozilgan ushbu misralarda shoir so'zni naqadar yuksak maqomda qo'yanligini anglashimiz mumkin. So'z qanotga aylanib parvoz ayladiki, qog'ozga ham sog'may qoldi, yozish uchun qalam ham darkor emas.

So'z olamni mast qilar darajada kuyga aylandi. So'z iroda va qat'iyat kabi bo'ldiki, hatto unga farishtalar oshiq bo'ldi.

Bejizga, xalqimiz orasida “ So'z - qalb ko'zgusi” deya aytilmaydi. Har bir aytigan so'z qalbdan chiqadi. Shuning uchun shoir : “So'z qanotga aylandi yurak ko'chdi osmonga” - deydi. Odamlar bilan suhbatlashish jarayonida uning kimligini, qaday tafakkur sohibi ekanligini ilg'ay olamiz. She'rning so'ngi misralarida “So'z hayotga aylandi, so'z aylandi insonga” deya ta'kidlaydi .Albatta, yurakdan aytigan gaplar qanday tilda bo'lmasin aytuvchining saviyasi, ma'naviyatini ifoda etuvchi ko'zgudir. Tasavvufning yorqin vakili bo'lmish Hazrati Jaloloddin Rumi ham:

Mo burunro nangaremu qolro,
Mo durunro bingaremu holro.

(Biz tashqi tuzilishga va so'zga qaramaymiz, biz ichkariga va holga boqamiz.) Rumiy tashqi belgilar, so'zlar shakliga e'tibor qilmaslik, balki so'zning ma'nosiga, samimiyligiga, yurakdan chiqqanligiga e'tibor berish lozimligini aytib o'tgan. Zero, inson qalbi Allohnning uyi, bu uy qancha toza, sarishta Allah nuri, ilm-u hikmati unda shuncha mujassam bo'ladi va Hazrati Rumiy “Ko'ngil bu javhar, so'z esa araz (hodisa)” - deydi. Bundan ko'rinish turibdiki, so'z qurol, ko'ngil esa quroldon. Ko'ngil o'rstanmasa, hissiyotlarga to'lishmasa, so'zda ta'sir bo'lmaydi. Ushbu tasavvufiy qarashlar Sadriddin Salim Buxoriyning sodda, ammo chuqur ma'noga ega bo'lgan she'rlarida ifodasini topgan. Haqiqatan ham, shoir tariqat yo'lini tutgan tasavvufshunos olimlardan bo'lgan. U kishini naqshbandshunos desak ham mubolag'a bo'lmaydi chunki Bahouddin Naqshbandning hayoti va ijodini, naqshbandiya tariqatining usul va odoblarini chuqur o'rganib, bir necha badia va kitoblarni xalqqa taqdim etdi hamda shoirning o'zi ham ushbu tariqatning chizilgan chizgilaridan yurib, nafaqat o'z hayotiga balki she'rlarida aks ettirdi:

Yurt egasi yurtni obod etmoqda, shukr,
Naqshband bobomni shod etmoqda, shukr.
Xizmati bilan elni dilshod etmoqda, shukr,
Sadriddin ham naqshbandiy bo'lsa, ne ajab!

Tarix sahifalariga nazar tashlar ekanmiz, ma'lum bir davrlarda madaniy – tarixiy yodgorliklarimiz o'gir ahvolga kelib, vayrongarchilikka yuz tutgandi. Buxoroning bir necha obidalari, tarixiy yodgorliklari hamda Naqshband ziyoratgohi ham shular jumlasidan edi. Shunda “Yuragim misoli Buxoro, uning ham qal'asi vayrondir” deya iztirob chekdi.

Mustabid tuzumning xalq boshiga soya solib turgan qora bulutlari ketgach, mutaqillikning dastlabki yillardanoq orzu – armonlari ushalganidan benihoyat xursand bo'lgan Sadriddin Salim Buxoriy o'z e'tiqodini, ishonch va xursandchiligin baralla she'rlarida kuylay oldi. Uning otash qalb bilan yonib yozgan she'rlari xalq qalbiga tezda kirib bordi:

Buxoroga nur- ziyo keldi,
Imon keldi, sharm- hayo keldi.
Buxoroni zulmat etdi tark,

Buxoroga Buxoro keldi...

U butun ijodiy faoliyatini, ilmini, umrini, jonini Buxorga bag'ishladi. Umrining so'ngiga qadar Buxoro bilan hamnafas yashab yurtning chinakkam fidoyisiga aylandi. Agarda uning she'rlari negizida chin insonparvarlik g'oyasi, xalqning haqiqat vaadolat haqidagi orzulari yotmaganida u bunchalik keng tarqalmas, bunchalik ommaviylashib, ijod ahlining qalbidan o'r'in olmasdi bu qadar qaynoq va jozibali o'ziga xos bir she'riyat yaralishiga turtki bo'lmasdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Buxoriy. S.S. Dilda yor: (Hazrat Bahouddin Naqshband): Badia. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1993. 80b. – (Turk dunyosi yulduzlari)
2. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf saboqlari. – T.: Buxoro Davlat universiteti nashriyoti., 2000. 140b.
3. Komilov N. Tasavvuf: 2-kitob. Tavhid asrori: T.: G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1999. -208b.
4. Murodov G'ayrat. Yorug'lik odami. – Buxoro, 2016.
5. Annemarie Shimmel. Jonon mening jonimda. - T.: Sharq nashriyoti manba kontserni bosh tahririyyati., 1991. -14b.